



MAKTABLARDA INGLIZ TILI TA'LIMINING HOZIRGI HOLATI VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI

Muallif: Shoisayeva Dilxumora Shojalil qizi¹

Affiliyatsiya: Doktorant, Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik milliy mahorat instituti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17355841>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida ingliz tili o'qitishning hozirgi holati va bujarayonda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Ingliz tili ta'limini samarali tashkil etishda innovatsion yondashuvlarning o'rni, xususan, sun'iy intellektning afzalliklari va qo'llashdagi mavjud muammolar yoritib beriladi. Shuningdek, texnologik vositalarni joriy etishda uchraydigan metodik va texnik cheklovlar, o'qituvchilarning malakasi hamda o'quvchilarning qabul qilish imkoniyatlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: ingliz tili ta'limi, sun'iy intellekt texnologiyalari, zamonaviy o'qitish vositalari, o'qitish samaradorligi, metodik muammolar, ta'lim jarayoni.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida ingliz tili ta'limining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ingliz tilinafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki ilm-fan, texnologiya va biznesning yetakchi tili sifatida ham tan olingan. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, umumta'lim maktablarida ingliz tili darslari sifatini oshirish, zamonaviy metodikalar va texnologiyalarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda dunyo miqyosida ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalari keng kirib kelmoqda. Sun'iy intellekt (SI) o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni yangi bosqichga olib chiqish, individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, interaktiv mashg'ulotlarni tashkil etish hamda o'quvchilarning bilim darajasini tezkor baholash imkoniyatlarini yaratmoqda. Ingliz tili ta'limida SI asosidagi platformalar — chat-botlar, ovozli yordamchilar, avtomatik tarjimon dasturlar, onlayn test tizimlari va adaptiv o'qitish vositalari keng qo'llanilmoqda. Biroq amaliyotda bu imkoniyatlardan samarali foydalanishda bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, maktablarda texnik jihozlarning yetishmasligi, internet tezligi va barqarorligining pastligi, o'qituvchilarning yangi texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalari yetarli emasligi jarayonni sekinlashtirmoqda. Shuningdek, metodik jihatdan SI texnologiyalarini ingliz tili darslariga to'g'ri integratsiya qilish masalasi ham dolzarbligicha qolmoqda. Shunday qilib, ushbu maqolada umumta'lim maktablarida ingliz tili o'qitishning hozirgi holati, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari hamda amaliyotda uchraydigan muammolar ilmiy tahlil qilinadi. Mazkur masalani yoritish orqali ingliz tili ta'limida samaradorlikni oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda metodik hamda tashkiliy takliflar ishlab chiqish ko'zda tutiladi. O'zbekiston Respublikasida ingliz tilini umumta'lim maktablarida o'qitish tizimi tarixiy, ijtimoiy va siyosiy omillar ta'sirida shakllangan.

bo'lib, uning rivojlanish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshib kelmoqda. Ingliz tili o'qitishining hozirgi metodik asoslari va tizimiy yondashuvlari, avvalo, mustaqillikdan keyingi ta'lim siyosatida xorijiy tillarga, ayniqsa ingliz tiliga berilgan e'tibor bilan chambarchas bog'liqdir.

ASOSIY QISM

Mustaqillik yillaridan so'ng O'zbekistonda xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'qitish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ayniqsa 2012-yil 10- dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875- sonli Qarori ushbu jarayonda tub burilish yasadi. Qarorga ko'ra, ingliz tilini o'qitish maktabgacha ta'limdan boshlanishi belgilandi, boshlang'ich sinflardan boshlab majburiy o'qitish joriy qilindi, yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalar ishlab chiqildi va malaka oshirish tizimi yo'lga qo'yildi. 2017-yilda qabul qilingan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmon bilan tasdiqlangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi (2022–2026)" hujjatlarida chet tillarini o'rganishning samaradorligini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha aniq vazifalar belgilanadi. Bu esa ingliz tilini o'qitish tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. 2021-yilda qabul qilingan PQ-5050-sonli Prezident qaroriga binoan, chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish, moslashuvchan metodikalar ishlab chiqish, interaktiv platformalardan foydalanish, hamda baholashni avtomatlashtirish mexanizmlarini tatbiq etish ustuvor vazifa sifatida ko'rsatildi.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga murojaat qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (2023) bergan ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda jami 10 300 dan ortiq umumta'lim maktablari faoliyat yuritmoqda.

Shulardan:

- 700 dan ortiq maktabda ingliz tili chuqurlashtirib o'qitiladi;
- 220 dan ortiq ixtisoslashtirilgan chet tillar maktablari tashkil etilgan;
- Prezident maktablari, ijod maktablari, temurbeklar maktablari va AKTga ixtisoslashtirilgan maktablarda ingliz tili zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitilmoqda;

— 2024-yil holatiga ko'ra, umumta'lim maktablarida ishlayotgan ingliz tili o'qituvchilari soni 65 mingdan ortiq bo'lib, ularning atigi 18% i CEFR tizimi bo'yicha B2 yoki undan yuqori darajadagi sertifikatga ega. Hozirgi paytda umumta'lim maktablarining ko'pchiligida ingliz tili haftasiga 2–3 soat o'qitiladi. Ayrim ixtisoslashgan maktablarda bu 5–6 soatgacha yetadi. Ta'lim 1-sinfdan boshlanib, 11-sinfgacha davom ettiriladi. 5–11-sinflar uchun ishlab chiqilgan o'quv dasturlari davlat standartlari asosida yangilangan bo'lsa-da, ularning sun'iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiyalashgan variantlari hali to'liq ishlab chiqilmagan.

Metodik ta'minotga kelsak, "Fly High", "Teens English", "Prepare" kabi darsliklar asosiy manba bo'lib qolmoqda. Ayrim maktablarda "Oxford", "Cambridge", "Macmillan" nashriyotlarining resurslaridan foydalanish amaliyoti mavjud. Biroq, Al vositalariga moslashtirilgan, sun'iy intellekt bilan bog'liq mashg'ulotlar yoki diagnostik modellar hali keng joriy etilmagan.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ingliz tilini o'qitish tizimi tarixan muayyan bosqichlardan o'tgan bo'lsa-da, aynan hozirgi bosqichda uning rivojlanishi davlat

siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Bu sohada olib borilayotgan islohotlar, texnologik yangilanishlar va xalqaro tajribalarni tatbiq etish zarurati ta'lim sifati, o'quvchilar kompetensiyasi va o'qituvchilarning malakasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ammo mavjud metodikalar, resurslar va o'qituvchilik salohiyati zamonaviy sun'iy intellekt vositalari bilan chuqur uyg'unlashmaganligi tufayli, yangi pedagogik yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Ushbu ehtiyojni qondirish esa innovatsion lingvodidaktik model ishlab chiqishni talab etadi Ingliz tili ta'limining amaliy holati va tizimdagi dolzarb muammolar O'zbekistonda umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitishning davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanishiga qaramay, amaliyotda ushbu fanni sifatli o'qitishga to'sqinlik qilayotgan qator muammolar mavjud. Ingliz tili ta'limining bugungi holati murakkab va ko'p omilli muammolar tizimida namoyon bo'lib, bu sohada chuqur islohotlarni talab etadi. Quyida mavjud muammolar to'rt asosiy yo'nalish bo'yicha ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Birinchidan, ingliz tili o'qituvchilarining malaka darajasi va metodik tayyorgarligi hali ham yetarli darajada emas. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil holatida respublika bo'yicha 65 mingdan ortiq ingliz tili o'qituvchisi faoliyat yuritmoqda, biroq ularning faqatgina 18 foizi CEFR (Common European Framework of Reference) darajasida B2 yoki undan yuqori malaka sertifikatiga ega. 2020–2024-yillarda amalga oshirilgan sertifikatlash jarayonlari ularning aksariyati CEFR A2 yoki B1 darajasida qolayotganini ko'rsatdi. Bu holat o'qituvchilarning mustaqil dars rejalashtirishi, interaktiv metodlardan foydalanishi, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashi imkoniyatini cheklaydi. Aksariyat ingliz tili o'qituvchilari darslarni an'anaviy, grammatikaga yo'naltirilgan, passiv metodlar asosida olib boradi, bu esa kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga to'liq xizmat qilmaydi.

Ikkinchidan, o'quv-metodik ta'minot sifati va yangilanish sur'ati hozirgi ta'lim talablariga to'la javob bermaydi. Respublika umumta'lim maktablarida 5–11- sinflar uchun “Fly High” va “Teens English”, “Prepare nomli darsliklar keng qo'llanilmoqda. Ushbu darsliklar 2012–2015-yillarda tayyorlangan bo'lib, zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlar, sun'iy intellekt texnologiyalari, virtual interaktiv mashg'ulotlar yoki adaptiv topshiriqlarni o'z ichiga olmaydi. Aksincha, ko'plab darsliklar qoidalarga asoslangan, muloqotga yo'naltirilmagan, real hayotiy situatsiyalar bilan integratsiyalanmagan. Qo'shimcha materiallar va o'quv qo'llanmalar (masalan, ish daftarlari, audio fayllar, mobil ilovalar) ko'plab maktablarda mavjud emas yoki faqat bosma shaklda taqdim etilgan. Bu esa multimodal ta'lim tamoyillariga zid holatni keltirib chiqaradi.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishdagi cheklovlar va infratuzilma muammolari mavjud. Aksariyat maktablarda yuqori tezlikdagi internetga ulanish cheklangan yoki mavjud emas, kompyuter sinflari yetarli emas, planshet, noutbuk, monitor, proyektor kabi vositalar kam sonli maktablarga taqsimlangan. O'qituvchilarning ko'pchiligi electron platformalardan (Google Classroom, Quizlet, Kahoot, LearningApps, Duolingo, Grammarly) foydalanish ko'nikmasiga ega emas, yoki faqat nazorat ishlarini yozish uchun ishlatadi, dars jarayonini metodik jihatdan AI vositalar bilan integratsiyalash imkoniyati yetarlicha o'zlashtirilmagan. Elektron baholash, diagnostika, avtomatik feedback tizimlari amalda joriy etilmagan. Natijada o'quvchi individual o'zlashtirish darajasiga mos topshiriqlarni ololmaydi, differensial yondashuv amalga oshmaydi.

To'rtinchidan, baholash tizimi, o'qitish uslublari va yondashuvlar an'anaviyligicha qolmoqda. O'quvchilarning bilim darajasi asosan grammatik bilimlar asosida baholanadi, yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarining shakllanishiga doir indikatorlar amaliyotda yetarlicha qo'llanilmaydi. Aksariyat sinovlar va testlar variantli (multiple choice) shaklda bo'lib, muloqotga asoslangan baholash vositalari (rubrik, portfolio, self-assessment) juda kam hollarda ishlatiladi. Mavjud baholash tizimi sun'iy intellekt vositalari tomonidan tahlil qilishga yaroqli emas, bu esa AI asosidagi real-vaqtli tahlil, differensial baholash, o'z-o'zini monitoring qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Yuqoridagi muammolar O'zbekiston ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitish jarayonini zamonaviy, texnologik va lingvodidaktik tamoyillarga asoslangan yondashuvga o'tkazish zaruratini ochiq ko'rsatadi. O'qituvchi malakasi, metodik ta'minot, texnologik infratuzilma va baholash tizimi o'rtasida mavjud tafovutlar sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilishda eng muhim to'siq bo'lib qolmoqda. Shunday ekan, bu muammolarni hal qilishning innovatsion yo'li sifatida o'quvchilarning ehtiyojiga mos, diagnostik va adaptive metodikaga ega bo'lgan AI-yordamli ta'lim modeli ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifadir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Respublikamizda xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'qitish tizimini tubdan modernizatsiya qilish yo'lida ta'lim siyosatining strategik asoslari yaratilgan. Bu siyosat doirasida sun'iy intellekt texnologiyalarining maktab ta'limiga keng joriy etilishi nafaqat zamonaviy didaktik yondashuv, balki davlat miqyosidagi ilmiy-texnik ustuvorlik sifatida shakllanmoqda. Shunday ekan, ushbu islohotlarning mazmun-mohiyatiga tayanib, maktab darslari uchun sun'iy intellektga asoslangan metodik model ishlab chiqish va u orqali o'quvchilarning lingvodidaktik kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi kun ta'limi oldida turgan muhim ilmiy-amaliy vazifa bo'lib qolmoqda. Yuqorida ko'rib chiqilgan tahliliy jihatlar – amaliy holat, mavjud muammolar va rivojlanish strategiyalari – shuni yaqqol ko'rsatadiki, O'zbekiston umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitish tizimi jadal modernizatsiyalash bosqichiga kirgan bo'lsa-da, bu jarayonda hal qilinishi lozim bo'lgan tizimli kamchiliklar mavjud. Jumladan, o'qituvchilarning malaka darajasi va metodik tayyorgarligi pastligi, mavjud darslik va o'quv-uslubiy materiallarning didaktik jihatdan eskirganligi, baholash tizimining AI vositalari bilan integratsiyalanmaganligi, texnologik infratuzilma va raqamli resurslarning taqchilligi, shuningdek sun'iy intellekt texnologiyalarining o'qitish jarayoniga metodik jihatdan moslashtirilmaganligi ushbu sohada kompleks yangilanishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2012.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ingliz tili o'qitishni takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2021.
3. Xo'jayev, M. va boshq. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Abdullaeva, S. Ingliz tili ta'limida innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

5. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2014.
6. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. –Cambridge: Cambridge University Press, 2015.
7. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – London: UNESCO, 2016.

